

HAJVIYALARDA ANTONIMLARNING KULGI YARATISHDAGI O'RNI

Mavlonova Oyjamol Kozimjon qizi ¹¹ Andijon davlat universiteti

Lingvistika mutaxassisligi 2-bosqich magistranti

Telefon: +998 91 482 42 21

MAQOLA
MALUMOTI

ANNOTATSIYA:

MAQOLA TARIXI:

Received: 23.05.2025

Revised: 24.05.2025

Accepted: 25.05.2025

KALIT SO'ZLAR:

hajv, antonim, kulgi,
stilistik vosita, kinoya,
obraz.

Ushbu maqolada hajviy adabiyotda antonimlarning kulgi yaratishdagi roli o'rganiladi. Asosiy tahlil obyekti sifatida o'zbek hajviy yozuvchisi Habib Siddiqning asarlari tanlandi. Tadqiqot davomida antonim birliklarning hajviy ifoda vositasi sifatida qanday ishlatilishi, ularning personajlar xarakterini ochishdagi, ijtimoiy tanqidni kuchaytirishdagi hamda komik effekt yaratishdagi ahamiyati tahlil qilinadi. Maqolada konkret matn namunalaridan foydalanilgan holda, antonimlarning kulgi estetikasi va ma'no kontrastiga asoslangan ijtimoiy-hajviy maqsadlardagi funksiyalari yoritiladi.

KIRISH. Antonim atamasi yunoncha “qarama-qarshi, zid nom” ma'nolarini anglatadi. Demak, antonimlar (zid ma'noli so'zlar) tillardagi qarama-qarshi ma'noni bildiruvchi so'zlar hisoblanadi. Bilamizki, dunyoda barcha narsa, hodisalar juftlik prinsipiga asoslangan. Juftlik borligi uchun ham jahonda o'sish bor, taraqqiy etish bor, ammo har qanday juftlik ham rivojlanishning asosi bo'lolmaydi. Antonim so'zlar tilning leksik qatlamidagi ana shunday juftlikning namunasi deya olamiz. Antonimlik xususiyati bu leksik birliklarning bir-biriga zid bo'lishidir. Ushbu xususiyat asosan bir turkum doirasida bo'ladi. Hajviy asarlarda ham antonimlarning o'zni beqiyos. Hajviy asar tilining ifodaliligi, emotsionalligi, ta'sirchanligini ta'minlashdagi eng qulay vositalardan biri bu antonimlar sanaladi.

Sharq adabiyotida qadimdan buyon hissiy ta'sirchanlikni, shoir va yozuvchilarning ichki his-tuyg'ularini jozibali tarzda ifodalash usuli sifatida tazod san'atidan keng ko'lamda

foydalanib kelishganligi barchaga ma'lum. Ushbu atama Yevropa adabiyotida antiteza deb ham yuritiladi. Badiiy asarlarda leksik antonimiya va kontekstual antonimiya farqlangan bo'lib, bir so'z turkum doirasida faqat bir so'zning ziddi leksik antonimiyadir. Kontekstual antonimiya esa o'zaro qarama-qarshi ma'no anglatmaydigan leksemalarning ma'lum matn tarkibida so'zlovchi yoki muallif tomonidan zid munosabatlarga kirishishidir. Xususan, yozuvchi Habib Siddiq hangomalarida va hajviyalarida zid ma'noli so'zlarning kulgi vositasi sifatida ishlatilishi keng qo'llangan. "Bedavo dardning davosi" kitobidagi aksariyat kichik hangomalarda antonimlar orqali hajv uyg'otish yetakchi o'rinda turadi. Ushbu kitob ichidagi "Suvdagi baliqdek" hangomasidan parcha keltiraman: ...Erka boy boshlig'ining oldida o'zini suvdagi baliqdek his qiladi.

- O'-ho'... O'zini juda erkin tutadi demoqchimisiz?
- Yo'q, og'zini ochadi-yu, hech narsa gapirolmaydi, deymen.

Keltirilgan parchada "Suvdagi baliqdek" iborasi dastlab ijobiy, ya'ni "Erkin" ma'nosida qo'llangandek tuyiladi, ammo hangoma oxirida ushbu birikmaning xuddi baliq kabi "Hech narsa gapirolmaydi" ma'nosida kelayotgani anglashiladi va bu o'rinda "Erkin" va "Hech narsa aytolmaydi" so'zi hamda birikmasi bir-biriga qarama-qarshi qo'yiladi. O'zbek tilida zid ma'noli so'zlar faqat bir turkum doirasida bo'ladi. Demak, "erkin" so'zining bu o'rindagi antonimi "tutqun" so'zi bo'lishi kerak, ammo matnning hech bir joyida ushbu so'zga ko'zimiz tushmaydi. Bundan ko'rinib turibdiki, yuqoridagi hajviyada leksik antonimiyadan emas, balki kontekstual antonimiya yuzaga chiqmoqda.

Yana bir qisqa hajviyalaridan hisoblangan "Tejaladigan bo'ldi" hajviyasida esa:

- Sochlarini qoraytiraman, deb qancha dori-darmon, bo'yoq sarflayotgandi. Endi chiqimi ancha yengillashdi.
- Sochlari qorayib bo'ldimi?
- Yo'q, to'kilib bitdi.

Sochini qoraytirmoqchi edi, ko'plab dori-darmon, bo'yoqlar ketadi... Ushbu gapni o'qigach, o'quvchida natijasi qanday bo'larkin? Savoli paydo bo'ladi. Shu o'rinda sochlari qorayib bo'ldimi? Savoliga yo'q to'kilib bitdi javobining berilishi kulgi qo'zg'aydi insonda. Bu yerda sochining qorayishi va to'kilib tugashi zid ma'noda qo'llanilib hajvni yuzaga keltirmoqda. Ko'rinib turibdiki, aynan antonim so'zlar orqali emas, balki antonimik ma'nodagi birikmalar yoki gaplarning zid ma'nosi orqali kishida tabassum uyg'otadi.

Quyidagi yana bir kichik hangomani tahlil qilamiz: "...Moddiy ahvolim nihoyatda og'irligini hisobga olib, yaqinda sotib olgan yengil mashinamga garaj qurishga kasaba uyushmasi qo'mitasi hisobidan yordam berishingizni so'rayman..." "Arizadan" nomli ushbu asarda "moddiy ahvolning yomonligi" va "Yangi sotib olingan yengil mashina" birikmalari o'zaro qarama-qarshi mazmunda qo'llanilgan.

"Chorasit opiladi" hajviyasida:

- Yaqinda to'rttagacha xotin olishga ruxsat beradigan qonun chiqar emish.

- E-e, o'zi bittasini arang eplayapsizlar-u, to'rttaga yo'l bo'lsin. Axir ularni boqish kerak!

- E, xotin, shunga ham aqling yetmaydimi? Avval to'rtta qivolaylik, keyin maslahatlashamiz-da – bir odam to'rt kishini boqqani ma'qulmi, to'rt kishi bittasini?

Aslida, son va olmosh so'z turkumida zid so'zlar mavjud emas, bu hammaga ma'lum. Yozuvchi hangomada son so'z turkumidagi **bir** hamda **to'rt** raqamlarini ma'noviy zidlash orqali hajviya yaratmoqda, ya'ni “Bir kishi to'rt kishini boqqani ma'qulmi yoki to'rt kishi bir kishini? Ushbu o'rinda “bir” sonining “oz” so'zining o'rnida, “to'rt” sonining esa “ko'p” so'zining o'rnida kelayotgani “Ko'p va oz” antonim juftligini mazmunan hosil qilmoqda.

Yoki yana bir hangomaga to'xtalsak, bir ayol modular atelyesiga tiktirgan kostyumidan shikoyat qilib keladi: kostyumining bir yengi uzun, ikkinchisi esa kaltaligini aytadi. Biroq atelye direktori chevarlarining ilg'or ekanligini aytganda ayol:

- Mana, ko'rib turibsiz-ku?! – dedi ayol qo'llarini oldinga uzatib.

- Ko'rib turibman, ko'rib turibman, dedi direktor. Kostyumning yengidan bir qo'lingiz uzunroq, boshqasi kaltaroq chiqib turibdi. Darvoqe, o'zingiz yaxshiroq e'tibor berganmidingiz, balki qo'llaringizning biri uzun, biri kaltadir...

Ushbu hangomada kostyumning emas, balki mijozning qo'li biri uzun, biri kaltaligi mazmunan bir-biriga zidlanib, kulgi uyg'otmoqda. Demak, yuqoridagi hajiyani tahlil qilsak, ham leksik, ham kontekstual antonim hodisasi borligiga guvoh bo'lamiz. Bu yerda leksik antonim: **uzun** va **kalta** leksemalari. Sifat so'z turkumiga oid ushbu so'zlar ma'nosi jihatidan hajm-o'lchov sifatlariga mansub.

Yana bir ajoyib hajviyasidan namuna keltiradigan bo'lsam, “Yengillik va og'irlik” deb nomlangan hangomaning sarlavhasini o'qib-la qarama-qarshilik ma'nosini ko'ra olamiz:

- Ikkinchi qissamni ham xuddi birinchisidek, juda yengil yozib tashladim, - dedi yozuvchi mag'rur.

- Ishqilib kitobxonlarga og'irlik qilib qolmasa bo'ldi-da, - dedi muharrir jilmayib.

Bu yerda mantiqan kinoya ham mavjud bo'lib yozuvchining o'z qissasining yengil yozib tashlagani va bugungi o'quvchiga hattoki, o'sha yengil yozilgan asar ham “Og'irlik” qilib qolishi tanqid ostiga olinmoqda, ya'ni yozuvchi bir hajviyadagi antonim so'zlar orqali ham insonlarni kulishga majbur qilmoqda, ham jamiyatdagi bugungi o'quvchining saviyasi haqidagi qarashning bayonini berib, insonlarni o'yga toldirmoqda, o'ylashga majbur qilmoqda.

Yoki ijtimoiylik bilan to'la yana hangomasini misol qilsam, “Bo'sh paytlarda” nomli hangomada: Kolxoz kutubxonachisi Xushim Keldiyevga:

- Ishdan bo'sh paytlaringizda nima ish qilasiz?- deya so'rashadi.

- Rais, muovin buyurgan ishlardan bo'sh paytlarimda kutubxonani ochib o'tiraman,- deb javob beradi...

Bir qarashda kulgili tuyilgan bu hajviyada, aslida, jamiyatimizning dolzarb muammolaridan hisoblangan “Mansabdorga sig’inish” odati o’tkir hajvga olinmoqda. Kutubxonachining joyi kutubxonada bo’lishi kerak, ammo raisga yoki muovinga xizmatdan bo’sholmaydi va faqat shu ishlardan bo’sh paytlardagina ish joyida bo’la oladi, xolos.

Yuqoridagi hajviyada kontekstual antonimiya hodisasi yuzaga chiqmoqda, ya’ni kutubxonachi bo’la turib vaqti bo’lgandagina kutubxonani ochadi, boshqa payt raisning va uning muovinining ortidan “yugurdak” bo’lib yuradi. O’zida ijtimoiylikni, jamiyatdagi johillikni ochish maqsadida ifodalangan “bo’sh paytlarda kutubxonada bo’laman” gapi orqali yozuvchi kelajak avlodimiz bo’lgan yoshlarimizning kelajagiga sayoz ko’z bilan qaragan kutubxonachi, rais va muovin obrazlarini kontekstual antonimiya vositasi kulgili, ayni o’rinda juda achinarli tarzda ifoda etadi.

Xulosa qilib aytganda, Habib Siddiq hajviy asarlarida antonimlar nafaqat tilni boyitish vositasi, balki kulgi yaratish, tanqidiy nuqtai nazarni ifodalashda kuchli semantik qurol sifatida namoyon bo’lmoqda. Antonimlar orqali yaratilgan qarama-qarshi obrazlar o’quvchini kuldira turib, o’ylantiradi ham. Ular yordamida yozuvchi hayotdagi nohaqliklar, ijtimoiy illatlar, inson xarakteridagi salbiy jihatlar ustidan kinoyali va istehzoli fikr yuritadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Soliyeva D. Hajviy hikoyalar ustasi. – Andijon, 2023.
2. Habib Siddiq. Bedavo dardning davosi. – Toshkent, 2004.
3. Do’smatov H. Askiya matni lingvostilistikasi. – Toshkent:Fan. 2015.
4. Mirtojyev M. Hozirgi o’zbek adabiy tili. – Toshkent, 2004.